



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Umarova Nilufar Xasanovna**

*Samarqand viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi*

### TARBIYA DARSLARIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH MASALALARI

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ta'lim jarayonida loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, islohot, loyiha, Loyihaga asoslangan ta'lim, g'oya, maqsad, natija, bashoratlash, rejalashtirish, bilim, ko'nikma, hayotiy vaziyat, tanqidiy fikrlash, muammo, hamkorlik.

#### **Аннотация**

*В данной статье рассматривается важность использования проектной технологии обучения в образовании.*

**Ключевые слова:** образование, реформа, проект, проектное образование, идея, цель, результат, прогнозирование, планирование, знание, умение, жизненная ситуация, критическое мышление, проблема, сотрудничество.

#### **Annotation**

*This article discusses the importance of using project-based learning technology in the educational process.*

**Keywords:** education, reform, project, project-based education, idea, goal, outcome, forecasting, planning, knowledge, skill, life situation, critical thinking, problem, collaboration.



Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. Milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim va ma’rifat egalari shuningdek, jismoniy-ma’naviy sog‘lom insonlar qilib tarbiyalash Respublikamizning yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 134-sonli “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida har tomonlama teran belgilab berilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda o‘quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarini baholashga alohida e’tibor qaratiladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni, ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan yangi pog‘onalarga ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu jihatdan Tarbiya fani darslarida o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha - bu aniq bir muammoni hal etishga, optimal tarzda oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, lotinchadan “projekt” ya’ni reja, g‘oya, nima qilish kerakligini tavsiflashni ifoda etadi.

Loyihaviy ta’lim pedagogika amaliyotida qat’iy yangi tushuncha emas, pedagogikada “o‘quv loyihasi” tushunchasi 300 yildan ortiq qo‘llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko‘ra, “loyiha” (o‘quv loyihasi) tushunchasining paydo bo‘lishi XVI asrga taalluqli bo‘lib, italiyalik me’morlarning me’morlikni fan deb e’lon qilib, uni o‘quv fanlari darajasiga chiqargan holda o‘z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog‘liq.

Rim san’at akademiyasida (Academia di San Luca) asosiy fanlar bo‘yicha ma’ruzalarga muhim element — “tanlov” qo‘shilgan edi. Eng yaxshi o‘quvchilarga cherkov, haykal, saroy eskizini tayyorlash topshirig‘i berilib, ular ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar olingan bilimlarni mustaqil va ijodiy qo‘llashni o‘rganganlar. 1702 yildan (o‘quv loyihalari) tanlovi o‘quv yilining doimiy tadbiriga aylandi. U tuzilishi jihatidan hal etilishi lozim bo‘lgan vazifa, uni bajarish muddati, natijalarni baholash uchun jyrini kiritgan holda, haqiqatda tanlovga to‘liq mos kelgan. Biroq tanlovga taqdim etilgan ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmaganligi munosabati bilan, ular “progetti”, ya’ni “eskizlar”, “rejalar”, “loyihalar” deb nomlangan.

Demak, “loyiha” Rim akademiyasida ilk bor uchraydi. Bundan loyihaviy ta’limning uch yuz yildan ortiq asosiy mazmunga ega uch didaktik belgisi meros bo‘lib qolgan:

- O‘quvchilarni ko‘zda tutish, u loyihani mustaqil va javobgarlik bilan amalga oshirish davomida bilim olishni anglatadi.

-Voqelikni ko‘zda tutish, u voqelikka yaqin sharoitda amaliy vazifani ishlab chiqishda ifodalanadi.



-Mahsulotni ko'zda tutish, u rejalashtirilgan natijaga erishish uchun fanning turli sohalarida bilimlarni qo'llashni ko'zda tutadi.

Loyiha metodi (loyiha texnologiyasi) - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullaridan biri bo'lib, o'quv loyihasi muammolarini hal qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga qaratiladi.

Bu texnologiyani amalga oshirishda turli xil usullardan foydalanish mumkin, masalan: tadqiqot, kichik guruhlarda o'rganish, munozara va h.z.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli bo'lib, uning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

Loyihalash “g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash metodi- ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli sifatida boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatlarga asoslangan ta'lim texnologiyasidir.

Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, rangli qog'ozlar, karton bo'lakchalari, chizg'ich, qalam, markerlar va shunga o'xshash ashyolar yordamida amalga oshiriladi.

Loyihalar o'quv fanlari o'rnini bosmasligi balki mavzuga moslashtirilgan holda uni mazmunan to'ldirishi va chuqur o'zlashtirilishiga xizmat qilishi lozim.

Loyihani yaratish uchun o'qituvchi:

- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- o'quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayonning metodik tuzilishini asoslash;
- o'quvchilar bilim darajasini tashxislash;

- ishtirokchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchiga nima beradi? Ushbu texnologiya o'quvchilar o'rganishini rag'batlantiradi. Ularni muayyan hayotiy masalalarga jalb qilish orqali:

- ✓ bilim va ko'nikmalarini real voqelikda qo'llay olish;
- ✓ tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ ijodkorligini rivojlantirish;
- ✓ yuzaga kelgan muammolarni hal qilish;
- ✓ o'zaro hamkorlikda ishlash;
- ✓ topshiriqlarni bosqichli tarzda bajarish;
- ✓ o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish;
- ✓ nutqiy ko'nikmalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Demak loyihaga asoslangan ta'limning umumiy maqsadi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash darajasida aniq bilimlarini rivojlantirishdir. Ya'ni loyihaga asoslangan ta'lim yordamida o'quvchilar o'quv mazmunini chuqurroq anglab yetadilar, o'rganganlarini uzoq vaqt esda saqlab yangi hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari rivollanib boradi. Tarbiya darslarida loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarda yoshiga mos fazilatlarni shakllantirishga, ta'lim jarayonida olgan bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasining - Ta'lim to'g'risidagi O'RQ-637-sonli 2020-yil 23-sentabrdagi Qonuni //Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 24-sentabr, №202 (7704)-son.

2.[2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-134, 11.05.2022.

3.Kazakevich VM. Yuqori texnologiyalar asrida texnologik ta'lim // [Maktab va ishlab chiqarish](#), 2001 yil, №1

4.Paxomova N.Yu. Loyihaga asoslangan ta'lim nima? //Metodist, No 1, 2004.- b. 42.

5.Pavlova MB, Pitt J., Gurevich MI, Sasova IA Maktab o'quvchilarining texnologik ta'limidagi loyihalar usuli: O'qituvchilar uchun qo'llanma/ Ed. Sasovoy.- M.: Venta-Graff, 2003 yil